


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT
INSTITUTI**

**FAN VA TEXNIKADA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR: FIZIK YECHIMLAR,
METROLOGIK O‘LCHASHLAR HAMDA
ELEKTRONIKA VA ASBOBSOZLIK MUAMMOLARI**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY– AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI**



QARSHI–2023

Fan va texnikada innovatsion texnologiyalar: fizik yechimlar, metrologik o'lchashlar hamda elektronika va asbobsozlik muammolari" mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT
INSTITUTI**

**FAN VA TEXNIKADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR:
FIZIK YECHIMLAR, METROLOGIK O‘LCHASHLAR HAMDA
ELEKTRONIKA VA ASBOBSOZLIK MUAMMOLARI**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY– AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI
19–20 may 2023 yil.**

QARSHI–2023

TA'LIM JARAYONIGA KREATIV YONDASHUVNI JORIY ETISHNING ZARURATI

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti assistenti, Norchayev Abdulla Jabborovich,
Email: a.norchayev87@gmail.com*

O'zbekiston Respublikasida texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar o'rinda ta'lim muassasalarining yangi rivojlanish bosqichida yangilanayotlgan tuzilmaga kreativ yondashish zarur.

Ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda muhandislik kompetentliklarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi.

“Kreativlik” tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Shternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yuye, 2000 y.). Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- hayol qila olish (fantaziya)

Kreativ yondoshuvni ta'limni amalga oshiruvchi o'qituvchi quyidagi sifatlarga ega bo'lishi lozim:


- Kreativ fikrlashi keng;
- Tadqiqot ko'nikmalarini yaxshi egallagan;
- Pedagogika yoki maxsus fan yutuqlaridan hamda ilg'or tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini mustaqil tahlil qiladi;
- Professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan ijodiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Shuningdek kreativ yondoshuvni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal qilishga ham yordam beradi:

1. Talabalarni turli yo'nalishlarda fikrlashga o'rgatish;
2. Nostandart vaziyatlarda muammoning yechimlarini topishni o'rgatish;
3. Aqliy faoliyatning o'ziga xosligini rivojlantirish.
4. Talabalarni mavjud muammoli vaziyatni turli tomonlardan tahlil qilishga o'rgatish;

5. Tez o'zgaruvchan dunyoda yanada samarali hayot va moslashish xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan muhandisni tayyorlash.

Respublikamiz va xorijiy olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilgan holda aytishimiz mumkinki, o'quv jarayonini kreativ yondoshuvni joriy qilish talaba, o'qituvchi va ta'lim muassasasida ta'limning yuqori ko'rsatgichlariga erishish, soha va jamiyat uchun yuqori muhandislik kompetentligiga ega mutaxassisni tayyorlash borasidagi zarurati quyidagilardan iborat (1.1-rasm):



1.1-rasm. Ta'lim jarayonida kreativ yondoshuvni joriy etishning zarurati

Ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvni qo'llash asosida talabalarda muhandislik kompetentliklarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida kreativ yondoshuvni joriy qilishning zarurati asoslab olinganligi sababli tadqiqot ishimizning keyingi paragraflarda "muhandislik kompetentligi" atamasini

tahlil qilish va uni rivojlantirish tizimini ishlab chiqish borasida izlanishlar olib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T.: Sharq, 2020.–20-29b.

3.Xudoyberdiyeva F.G'. Tarbiyachining pedagogik faoliyatga kreativ yondashuvi. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 5 | 2022. – B. 540-547

4.N. Muslimov, M. Usmonboyeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" Toshkent – 2015

5.Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2012.

6.Choriyev N.N., Innovatsion yondashuv asosida talabalarda muhandislik kasbiga oid kompetensiyalarini rivojlantirish//O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20-son, 356-360-b

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA KOMPYUTERDA MODELLASHTIRILGAN ISHLANMALARDAN FOYDALANIB FIZIKA O'QITISHNING METODIK MODEL, USLUBIY-DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

*Namangan davlat universiteti Tayanch doktoranti, Ibragimov Raximjon Xasanboy
o'g'li, Email: raximjon2018@gmail.com*

Professional ta'lim nazariyasi va amaliyoti holatini tahlil qilish fizik bilimlarni rivojlantirish jarayonining barqarorligini ta'minlash faqat maxsus pedagogik modelni qurish va amalga oshirish orqali mumkinligini isbotladi. Mazkur paragrafda o'quvchilarning fizikadan axborot kompetensiyalarini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan.

Ushbu modelni ishlab chiqish uchun ilmiy yondashuvlarga tayanish zarur. Tadqiqotchi-pedagoglar professional ta'limni takomillashtirishga nisbatan turlicha yondashuvlarni taklif qiladilar (V.I.Andreev, V.P.Bespalko, V.N.Xudyakov, N.L.Xudyakova va boshqalar). Ularning har biri o'zining ijobiy tomonlariga ega bo'lgan ilmiy bilishni tashkil qilishning muayyan turini aks ettiradi. Shu munosabat bilan bir qator tegishli metodologik yondashuvlarni tanlash muammosi yuzaga keladi. Profesional ta'lim muammolarini tadqiq etishga nazariy metodologik yondashuvlarni tahlil qilish bu borada texnologik jarayonlarni takomillashtirish tizimli, kompetentli, aksiologik, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatli yondashuvlarning majmui nuqtai nazaridan eng mahsuldor bo'lishiga ishonitirdi.

Bizning tadqiqotimiz doirasida professional ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning yangi usullari va vositalarini topish zarur, xususan, o'quvchilarni kasbiy